



TOSHKENT SHAHAHAR MASJIDLARI

Qoraboyev Shokirjon Jumaqo'zi o'g'li

Toshkent arxitektura va qurilish universiteti

1-bosqich PHD doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788357>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

KEY WORDS

islom, masjid, mo'min, musulmon, minor, sajdagoh.

ABSTRACT

Ushbu maqolada yurtimiz hududlarida qurilgan masjidlarning hozirgi kunga qadar rivojlanish bosqichlari haqida malumot berilgan. Shu bilan bir qatorda zamonaviy masjidlarning shaharsozlik va memoriy yangiliklari haqida fikr yuritilgan.



Masjid-barcha mo'min-musulmonlar uchun Allohga ibodat qiladigan muqaddas joy hisoblanadi. "Masjid" so'zi arabchadan "ibodat qiladigan joy, sajdagoh" deb tarjima qilinadi. Muqaddas Islom dini dunyo bo'ylab eng keng tarqalayotgan din hisoblanadi. Shuning uchun ham mo'min, musulmonlarning ibodatlarini go'zal tarzda ado etishlari uchun masjidlar qurilishi yildan-yilga butun dunyo bo'ylab oshib bormoqda. Jumladan bizning diyorlarimizda ham yildan-yilga go'zal va muhtasham masjid binolari qad roslamoqda. Muqaddas islom dini bizning o'lkalarimizga kirib kelgandan boshlab aniqroq qilib aytadigan bo'lsak VIII-asr boshlaridan boshlab masjidlar qurilishi boshlangan. Masjidlar birinchi navbatda shaharlarda, keyinchalik qishloqlarda so'ng mahallalarda barpo etila boshlagan. Ilk qurilgan masjidlar ko'rinishlari xozirgi kundagidan bir muncha farq qiladi. Masjid nomoz xonasining qibla tomonida mehrob, undan o'ng tarafda esa vazxonlik uchun mo'ljallangan minbar ham doimiy ravishda masjidlarda bo'lgan. Masjidning hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'lgan. VIII-asrdan boshlab bizning diyorlarimizda masjidlar qurilishi boshlangan bo'lsa. Hozirgi kunga kelib bizning mustaqil O'zbekistonimiz hududida 2000 dan ziyod masjidlar o'z faoliyatini yurutib kelmoqda.



1-rasm. Yunusobod tumanidagi Minor jome masjidi.

Minor masjidi -Toshkentning yangi me'moriy diqqatga sazovor inshooti. Masjid 2014-yili Qurbon Hayit bayrami arafasida ochilgan. Anhor kanali sohilida ochilgan ushbu ulug'vor inshoot ochilishi bilanoq O'zbekistonning muhim diniy markazlaridan biri maqomiga ega bo'ldi. Masjid 2 500 dan ortiq kishini sig'diradi.Masjid an'anaviy sharq me'morchiligining barcha normalari bo'yicha barpo etilgan, biroq oq marmar pardozi bilan qadimiy masjidlardan ajralib turadi. Toshkentliklar uni ko'pincha "Oq masjid" deyishadi. Binoda ikki qavatli namoz zali va ikkita terrasa mavjud, ular orqali o'yma naqshlar bilan bezatilgan ustunlarga ega ichki hovliga o'tish mumkin.Masjidning ichki jihozlari u yaqinda barpo etilganidan dalolat beradi. Unda ko'p miqdorda zamonaviy qurilish-pardoz materiallari qo'llangan. Qolgan ishlarda esa O'rta Osiyo masjidlar uchun an'anaviy hisoblangan loy-gips o'ymakorligi, Qur'ondan iqtiboslar va Muhammad payg'ambarning iboralari bitilgan ko'plab freskalar va mehroblardan (qiblaga yo'nalishni ko'rsatib turuvchi yarim aylana tirqish) foydalanilgan. Toshkent mehrobi Samarqand mehrobining aniq nusxasi. O'zbek ustamuhandislari masjidlarni barpo etib, pardozi qilar ekan kishilarni hayratda qoldirishdan to'xtamaydi. Oltintepa masjidi 2016-yilda rekonstruksiya qilingan. Endi keng xona bir vaqtning o'zida 2 300 gacha kishini sig'dira oladi. Bino o'zbek me'morchiligining eng yaxshi an'analarida bajarilgan. Uni zangori gumbaz bezab turibdi, ichki pardozi go'zalligidan esa kishining aqli uchadi. Katta zal va ichki hovli go'yoki shahar tashvishlaridan xalos qiladigan boshpanaga va uyg'unlikka ega bo'ladigan joyga aylanadi. Oltintepa masjidi Mirzo Ulug'bek tumanida G'azalkent ko'chasida joylashgan. U kishini o'ziga jalb etadigan mahalliy diqqatga sazovor joyga aylangan.

O'zbekistondagi eng Yoshi ulug' masjidlardan biri, u 300 yillik tarixga ega. Avvalroq u Jo'rabek deb atalgan.2015 yilda masjid yong'indan shikastlangan edi, tiklanganidan keyin unga O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov nomi berildi. Masjid majmuasining hududi rekonstruksiya ishlaridan keyin ikki baravarga kattalashdi, endi u 10 ming nafargacha kishini sig'diradi. Majmuaga ulkan zangori gumbaz, markazda joylashgan bitta baland minora va burchaklar bo'ylab to'rtta kichik minora ko'rk bag'ishlab turibdi. Shuningdek, unda nodir

nashrlar va qo'lyozmalarning asl nusxalari to'plangan kutubxona ishlaydi.

Toshkentning eski shahar qismida Ko'kcha mahallasida Shayx Zayniddin nomidagi masjid joylashgan, uning maqbarasi ham shu yerda. Xalq orasida u joylashgan yeri Ko'kcha nomi bilan taniqli. Bu yerda bir vaqtning o'zida 6 000 kishigacha namoz o'qishi mumkin.

Shayx Zayniddin 1164-yilda tug'ilgan. U hayotini Suxravardiya tariqatining asoschisi – Shahobiddin Suxravardining ta'limotini ommalashtirishga bag'ishlagan. Uning maqbarasi buyuk Temurlangning buyrug'i bilan XIV asr oxirida barpo etilgan. Bugungi kunda masjid O'zbekistondagi eng ko'rkam ziyoratgohlardan biri hisoblanadi, chunki 2011-yilda bu yer xattotlik san'ati, yog'och va ganch o'ymakorligi san'atini qo'llagan holda rekonstruksiya qilindi. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak so'ngi yillarda yurtimiz hududlarida qurilgan masjidning hajmiy tarxiy echimlari, tashqi dizayni va ichki dizayni aksar xolatda umumiy ko'rinishda loyixalanmoqda. Tarx echimlari asosan to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, unga bog'langan xolatda ikkita yoki bitta ayvon va xovli sahni bilan loyixalanmoqda. Ichki dizaynida esa naqqoshlik san'atidan keng foydalangan tarzda bezatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhat:

1. O'zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <https://shosh.uz/toshkent-masjidlari-tarihidan/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Minor_masjidi
4. <https://otpusk.uz/uz/uzbekistan/sights/tashkent-mosques-churches>

INNOVATIVE
ACADEMY